

**INSON TANASINING NORMAL MIKROFLORASI VA UNING
AHAMIYATI VA VAZIFALARI. DISBAKTERIOZ.**

Xursanov Fayozbek

Toshkent Davlat tibbiyot instituti termiz filiali talabasi

Fayozxursanov2006@gmail.com

+998937795306

Ilmiy Rahbar: Ahmedova Saodat

+998912321114

Annotatsiya: Tish milkida tosh hosil bo'lishida aktinomitsetlarning (*A. viscosus*, *A. Is-raeli*) ta'siri katta. Toshlarning ko'payishi parodontoz kasalligiga Olib keladi. Og'iz bo'shlig'ida nomaxsus himoya omillari (so'lak, shilliq va shilliq Osti q av at hujayralarining to'siqlik xossalari) ham mavjud. So'lak tarkibida Kuclbli bakteriostatik va bakteritsid xususiyatga ega moddalar (lizotsim, Fermentlar, S IgA va boshqalar) bo'ladi. Shunga qaramay, og'iz bo'shlig'ini Toza saqlashning asosiy omili bu og'iz bo'shlig'I gigiyenasi hisoblanadi, Ya'n I kuniga ovqatlangandan so'ng tishlarni tish pastasi bilan 2-3 marta Yuvish va yilda 1-2 marta toshlardan tozalatish kerak. Norm ada ichki va o'rta quloqda mikroblar bo'lmaydi. Tashqi quloq yo'lida yog' bezlari yaxshi rivojlangan, ular sekreti hisobiga quloqda kir yig'iladi. Sog'lom odamlar qulog'ida ichaq tayoqchasi, *Proteus*, nopatogen *Stafilokokk* va korinebakteriyalar, achitqi zamburug'lari uchraydi. A lloxton mikrofloraga *Staph.aureus*, *Str.pigenes*, *Ps.aeruginosa*, *Aspergillus fumigatus*, *A.niger*, *A.terreus* kabi mikroorganizmlar kirishi Mumkin.

Kalit so'zlar: Karies, Tishlardagi tosh, Ichak mikroflorasi, Teri mikroorganizmlari, Qin mikroflorasi.

Kirish.

Teri doim tashqi muhit ta'sirida bo'lishiga qaramay, undagi Mikroorganizmlar turi va miqdori organizmdagi boshqa bioptatlarga Nisbatan ko'p emas. Odatda 1 sm² terida 02— J O' mikroorganizm aniqlanadi. B ularga asosan S taphyococcus epidermidis va Ssaprophyticus, Sarsinalar, mikrokokklar, difteroidlar, zamburug'lar,

streptokokklar, batsilla Va korinebakteriyalar kiradi. Mikroorganizmlar kichik bo'lishiga qaramay normal teri ichiga kira Olmaydi, chunki terida mexanik to'siq omillari ham mavjud. Agar teri Shikastlanib, unga tushgan shartli-patogen yoki patogen mikroblar tezda Ko'payib, mahalliy himoya kuchlarini yenga olsagina, u yerda yiringli, Zamburug'li va virusli yallig'lanish jarayonlari yuzaga keladi va infeksiya O'chog'iga aylanadi. alloxton Og'iz bo'shlig'I mikroblariga enterobakteriyalar Mikroflorasi (Escherichia, Klebsiella, Enterobacter, Proteus turkumlari), Ps. Aeruginosa, spora hosil qiluvchi bakteriyalar (Bacillus, Clostridium turkumlari) kiradi. Og'iz bo'shlig'idagi mikroorganizmlarning ko'pchiligi (70%) tish kirida Uchraydi. 1 mg quruq tish kirida 250 mln. Mikrob bo'ladi. Og'iz Bo'shlig'idagi mikroorganizmlar miqdori og'iz bo'shlig'I gigiyenasi, Odamning yoshi, ovqat ratsioni va boshqa omillarga bog'liq. Bu omillar Hisobiga mikrobiotsenoz muvozanati buzilsa, kariyes (tish chirishi), pulpit, Parodontit, stomatit kabi kasalliklar paydo bo'ladi. Masalan, kariyesni, Asoslan, Str. Mutans va L. casei lar qo'zg'atadi, ular uglevodlarni sut Kislotasigacha parchalaydi. Natijada so'lakning ishqoriy muhiti nordon Muhitga aylanadi, tish emali yemiriladi va kariyes rivojlanadi. Bundan Tashqari, nordon muhitda zamburug'lar rivojlanadi va lab bichilishiga Sabab bo'ladi.

Asosiy Qism:

Nafas yoilarining autoxton mikroorganizmlariga asosan «quyidagilar Kiradi: Staph, epidermidis, Staph, saprophyticus, difteroidlar, peptokokklar, Korinebakteriyalar, saprofit grammanfiy diplokokklar, Str. Mitis va Bact. Fragilis. Alloxton mikroblarga Staph, aureus, Str. Pyogenes, Str. Pneumoniae, M. lacunata, H. influenzae, adenoviruslar va boshqalar misol Bo'la oladi. Sovuq qotish, surunkali vitaminlar yetishmasligi, nafas yoilarining Shikastlanishlari, immun tizim faoliyatining susayishi natijasida nafas Yoilaridagi shartli-patogen va patogen mikroblar har xil kasalliklar (nafas yoilarining o'tkir kataral yallig'lanishi, bronxit, zotiljam va Boshqalar)ning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Меърий ичак микрофлорасининг сифатий ва миқдорий бузилишлари «дисбактериоз» ёки «дисбиоз» термини билан номланади. Bu termin tibbiyot Amaliyotiga 1916 yili A.Nisle tomonidan kiritilgan. Disbakterioz- ingliz Tilida – bakteriyalarning ortiqcha o'sib ketishi sindromi (bacterial overgrowth Syndrome), nemis tilida esa – bakteriyalarning hato o'rinishi (bakterielle Fehlbesiedlung) deb nomlanadi. Disbakterioz mustaqil nozologik shakl bo'lmay, Klinik-laborator sindrom sifatida ko'riladi. Uning paydo bo'lishida turli – Tuman sabablar mavjudligi aniqlangan; - odamning ovqatlanish turi, yoshi, yil Fasli, atrof- muhit holati, surunkali kasalliklar

mavjudligi, oshqozon ichak tizimi, ichakning jarohatlanishi bilan kechuvchi o'tkir ichak Infeksiyalari, surunkali kolitlar va enterokolitlar, nospesifik yarali Kolitlar, ichak invazyalari, uzoq vaqt antibiotiklar, gormonlar va nur Bilan davolanish patologiyasi va x.k. Chaqloqlarda va ko'krak yoshidagi Bolalarda ichak disbakteriozi chala tug'ilganlik, sun'iy ovqatlantirishga Erta o'tish, hamda onadagi patologiyalar (homiladorlik davridagi og'ir toksikoz Holat, mastitlar va b.k.) natijasida paydo bo'ladi. Normal ichak mikroflorasi 450 dan ortiq mikroorganizmlardan tashkil topib, hujayin organizmining metabolizmida va ichakda kolonizasion rezistentlikni shakllanishida ishtirok etadi. Ichakning mikroblar to'plami makroorganizmda moddalar almashinuvi jarayonlarining holatini aniqlaydi, bir tomondan, biologik faol birikmalarni zararsizlantirib, hazm bo'lmagan ozuqa moddalarini o'zlashtirsa, ikkinchi tomondan V gurux vitaminlarini, vitamin K, nikotin, folin va askorbin kislotalarni, ayrim fermentlarni sintezlaydi. Makroorganizmning immunobiologik reaktivligini shakllanishida mikrofloraning muhim o'rni e'tirof qilinadi, buning natijasida organizmda umumiy immunoglobulinlar miqdori boshqariladi. Shunday qilib, me'yoriy ichak mikroflorasining o'ziga xos - himoya, modda almashinuv, immun faollashtiruvchi vazifalari aniqlangan va ularning birortasining izdan chiqishi metabolizmning buzilishiga, natijada mikronutrientlarning - vitaminlarning, mikroelementlarning, mineral moddalarning etishmovchiligiga, hamda immun holatning pasayishiga, bu esa makroorganizm a'zo va tizimlarida qaytmas jarayonlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Homiladorlik davrida qinda glikogen miqdori oshib borganligi Tufayli laktobakteriyalar hayot faoliyati uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Ushbu davrda bakteroidlar, spora hosil qilmaydigan qat'iy anaeroblar va Aerob Gram (+) sharsimon va Gram (-) tayokchasimon bakteriyalar soni kamayadi. Bu o'zgarishlar homiladorlikning 3 trimestrida eng yuqori nuqtaga ega bo'ladi.

Tug'ruk qin mikroflorasi tarkibini sifat va miqdor jihatdan O'zgarishlariga sabab bo'ladi; spora hosil qilmaydigan Gram (-) anaerob Bakteroidlar, esherixiyalar ko'payib, lakto- va bifidobakteriyalar soni Kamayadi. Tug'ruqdan 3-4 kun o'tgach, vaginal mikroflora buzilishlari turli Xil asoratlar rivojlanishini engillashtiradi. Lekin bu mikroflora O'zgarishlari tranzitor bo'lib, tug'rukdan 6 hafta o'tgach me'yorgacha Tiklanadi. Vaginal mikrofloraning asosiy vakillaridan bo'lgan laktobakteriyalar Mikroaerofillar bo'lib, ayollar qinida ularning L.acidophilus, L.fermentum, L.crispatus, L.jensenii, L.gasseri turlari ko'p uchraydi. Soglom ayollarda Laktobakteriyalar faqat qinda uchramay, balki uretraning distal Bo'limlarida ham topiladi. Uroepitelial hujayralarda joylashgan Laktobakteriyalar siydik-tanosil traktining pastki bo'limlarini Uropatogen bakteriyalar kolonizasiyasidan himoya

qiladi. Laboratoriyaga olib kelingan najasning chukur kismidan 1 g tortib, vaginal suyuqlik Bo'lsa 1 ml olamiz va 9ml bufer eritmasida aralashtiriladi. Bu ham aerob, ham anaerob Bakteriyalarning bir tekis tarqalishi va ularning tirik saqlanishi uchun sharoit yaratadi. Bu eritmalarni 101 dan 1010 darajasigacha suyultiriladi va ularning har biridan tegishli Oziqa muhitlariga turli aerob, hamda anaerob mikroorganizmlarni ajratib olish uchun Ekiladi Anaerob bakteriyalar normal ichak mikroflorasining 98-99% ni, aerob flora esa 1- 2% ni tashkil qilishini hisobga olinib, ularni o'stirishda kimyoviy modda tutadigan gaz Pakechalari joylashtirilgan mikroanaerostatdan foydalanish mumkin(anaerob Bakteriyalarni ajratib olish usullariga qaralsin). Gr (-) spora hosil qilmaydigan qat'iy anaerob bakteriyalar natriy-azid qo'shilgan Qonli va bakteroidlar uchun agarlarda o'stirildi. Inkubasiya vaqti 350C da 72 soat Bu oziq Muhitlarda bakteroidlar yaxshi o'sadi. Bakteroidlar kulrang, to'q jigarrang, qora Koloniyalar hosil qilib, shakli – grammanfiy polimorf tayoqcha, spora hosil qilmaydi, Katalaza manfiy. Bakteroidlar qat'iy anaerob hisoblanib, anaerostatlarda 2-4 kun O'stiriladi. Gram (+) qat'iy anaerob bakteriyalar “Blourokko” va “Hime-dia” firmasining “Bifidobakteriyalar uchun agar” oziq muhitlarida 37,50 -380S da 48 soat anaerob sharoitda O'sadi. Bifidobakteriyalar disk ko'rinishdagi koloniyalar hosil qiladi. Bu agarda boshqa Anaeroblar ham o'sishi mumkin. Shuning uchun koloniyalardan surtma tayyorlanib ko'rildi.

Xulosa: Inson tanasining normal mikroflorasi — organizmning tabiiy himoya tizimining ajralmas qismi bo'lib, teri, og'iz bo'shlig'i, ichak, nafas yo'llari va urogenital tizimda muvozanatli holda yashovchi millionlab mikroorganizmlardan iborat. Bu mikroflora patogen mikroblarning ko'payishini cheklab, immunitetni kuchaytiradi, hazm jarayonida ishtirok etadi, vitaminlar (K, B guruhlari) sintezini ta'minlaydi va homeostazni saqlab turadi. Normal mikrobiota tarkibining buzilishi — disbakterioz — antibiotiklar, stress, infeksiyalar yoki noto'g'ri ovqatlanish ta'sirida rivojlanib, hazm buzilishlari, intoksikatsiya, immunitet pasayishi va infeksiyon kasalliklarga moyillikni oshiradi. Shuning uchun mikrofloraning barqarorligi inson salomatligi uchun muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, normal mikroflora organizmni himoya qilish, metabolik jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va immun tizim barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Disbakteriozni erta aniqlash va to'g'ri davolash esa organizmning umumiy funksional holatini tiklashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mikrobiologiya, immunologiya va virusologiya Muhamedov

2. “Mikrobiologiya, immunologiya va virusologiya Aliyev
3. “Mikrobiologiya, immunologiya va virusologiya” Muallif: A. A. Abdujabborov
4. “Mikrobiologiya va immunologiya” Muallif: Sh. N. Egamov
5. “Tibbiy mikrobiologiya va immunologiya” Muallif: Sh. A. To‘xtayev